

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MULTIMEDIALAR ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL ETISH

Erkinova Mashxuraxon Mahmudjon qizi
Qo'qon Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3 - kurs talabasi,
Sadriddinova Zulfiya Mirzaliyevna
Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamizda rivojlanayotgan axborot kommunikatsiyalar haqida ma'lumot berilgan. Maktablarda o'quvchilar uchun multimediali darsliklar va ularning ahamiyati haqida yoritib berilgan. Ushbu darsliklar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'nikma va malakalari yanada rivojlanishiga hissasi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: international, assessment, multimedia, strategiya, kommunikatsion, reflektiv, animatsiya, grafika, diafilm, kongnitiv

O'zbekiston jahon axborot makoniga shiddat bilan integratsiyalashmoqda. Mamlakat fuqarolari bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan to'plangan ma'lumot va axborotlarni cheksiz ravishda olish imkoniyatiga ega. Biz oladigan va foydalanadigan axborotning sifati bizning hayotiy tanlovimizga, ijtimoiysiyosiy faoliyatimizga katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish; xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish;

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida mediamadaniyatni shakllantirishga doir turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda „O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi“ to'g'risidagi farmonida „Uzliksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim tizimini xizmatlari, imkoniyatlarini oshirish, maqsadida dars jarayonida mediamahsulotlardan erkin foydalanish yo'lga qo'yilishini kerakligi ma'lum qilindi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari sohasi respublikamizning rivojlanishida muhim o'rin tutib kelmoqda. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yurtimizda axborot texnologiyalarini keng joriy qilish va rivojlantirish borasida olib borgan siyosati hozirgi kunga kelib o'z natijalarini ko'rsatmoqda.

2019-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasining asosiy ko'rsatqichlari; Iqtisodiy raqamlarga nazar tashlanadigan bo'lsak, o'tgan yildagi natijalarni ijobiy deb baholasa bo'ladi. Yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlarini yaratish ko'zda tutilgan. Mutahassislar tomonidan tayyorlangan elektron resurslar o'quvchilarning bilimlarini to'ldirishga xizmat qiladi. Mavzular yuzasidan shakllantirilgan multimedia mahsulotlari, o'qituvchiga ko'makchi, ota-onalarga yo'l ko'rsatuvchi, o'quvchiga esa bilimlarni mukammal o'zlashtirish imkonini yaratadi. Dars mavzusiga oid multimedia, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga ko'mak beradi. Boshlang'ich ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari bilim olish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Axborot texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ilmiy

tadqiqotlarda shu narsa ta'kidlanmoqdaki, axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'quvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiv tafakkuri rivojlanishiga katta ta'sir etadi. O'quvchilarning xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli ifodalanishi o'quv materialini boyitib, uning ilmiy jihatdan o'zlashtirilishiga yordam beradi. Dunyo miqyosida shiddat bilan rivojlanayotgan axborot ko'lami, ularni o'zlashtirishni yaratish, amaliyotga joriy etish ta'lim bosqichlarining barcha bo'g'inlaridagi jarayonlarni kompyuterlashtirish yo'lida uchraydigan muammolarni bartaraf etish va qayta ishlashga imkon beruvchi yangi axborot va pedagogik texnologiyalar qilishga qaratilgan ilmiy metodik ishlar, turli umumta'lim fanlaridan elektron darslik va pedagogik dastur vositalariga zaruriyat kundan-kunga oshib bormoqda. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darslarni jonlantirishga yordam beradi, bolalarga dastur materialini yaxshiroq o'rganish imkonini beradigan yorqin vizual tasvir sifatida ishlaydi.

Birinchi sinf o'quvchilari ertak qahramonlarini o'rgatish, xatolarni tuzatish, qahramonlarga qiyin vaziyatlardan chiqishga yordam berish, o'z yechimlarini taklif qilishni yaxshi ko'radilar, bolalar esa osongina muloqot qilishadi, o'z fikrlarini bildirishdan yoki boshqa asosli qaror qabul qilishdan qo'rqmaydilar. O'quv mashg'ulotlari davomida pedagogik jarayon o'z navbatida, o'qituvchi darsni zamonaviy tashkil etishi, interfaol metodlardan foydalanishi, takomillashtirishi o'quvchilarning bilim olish darajasi ortishiga sabab bo'ladi. Boshlang'ich sinfda axborot texnologiyalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil etish o'quvchilarning kognitiv psixologiya sohasini faollashtirishga, ta'lim materiallarini muvaffaqiyatli o'rganish va aqliy rivojlanishiga xissa qo'shishi kerakligini yodda tutush kerak. Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosini rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb atash mumkin. Bola axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ma'lum bir o'quv fuksiyasini bajarishi eslab qolishiga yordam berishi kerak. Axborot texnologiyalari o'quv jarayonining yordamchi elementi bo'lishi kerak deb o'ylayman. Axborot asri deb nom olgan asrimizni telekommunikatsiyasiz tasavvur qilish qiyin. So'ngi rusumdagi telefon, planshet, notebook va kompyuterlar internet orgali bizga asosiy ma'lumot va yangiliklarni bir zumda aniqlashda beminnat xizmat qiladi.

"Raqamli darsliklar AR" ilovasi umumta'lim maktablari fanlarini o'zlashtirishda foydalanadigan ta'limiy resurslar jamlanmasidir. Ilova "AR" kengaytirilgan borliq bo'lib ta'lim darsligiga 2021 - yil 5 - iyun oyida ommaga taqdim etilgan.

Raqamli darsliklar toplamida masalan: 1 - sinfning 8 ta darsligi mavjud bo'lib ularda "O'qish va Ona tili savodxonligi" darsligi 2 ga bo'lingan audeomatn va o'yinlar. Audeomatnda 20 ta mavzuni o'z ichiga qamrab oladi ya'ni "Mening oilam - Hoshimjonning oilasi" "Mening oilam - Dialog" "Kun tartibi - Gaplar" va boshqalar. Bunda o'quvchilar audeomatnni tinglab birga qaytarib mustahkamlab va berilgan topshiriqni a'lo darajada bajaradilar. O'yinlar bo'limi: 16 ta o'yin o'z ichiga qamrab olgan, nomlanishlari quyidagicha "So'zlardan foydalanib gap tuzing" "Bayramlar" "Taqvimlar bilan ishlash" "Mevali sonlar" "So'zlarni birlashtirib yangi so'z hosil qiling" "Raqamlarga qofiyadosh so'zlarni birlashtiring" va boshqalar. 1 - sinfning Tabiiy fan darsligida darslar betlarga bo'lingan ya'ni kamaytirilgan tarzda ishlab chiqarilgan 6-25 betlar, 26-39 betlar, 40-49 betlar 54-63 betlar. O'tilgan darslarni mustahkamlash uchun turli xil o'yinlar orqali, topshiriqlar va savol-javoblar o'tkaziladi. Bunda o'quvchi darsda o'tilgan mavzuni mustaqil o'zlashtirishida va ota onalariga izohlab berishadi. Ota onalari bilan berilgan uyga vazifasini bajarib kelishadi.

"AR" ilovasini barcha uyali aloqalarga teng qabul qilinadigan va o'quvchilar ulanganda ba'zi qiyinchiliklarga duch kelmasligi va darslik sonini ko'paytirish, o'yinlarni turini ko'paytirish, o'quvchini bilim doirasini kengaytirish yo'lida samarali yondashadi bolalarga yoshiga doir qiziqarli savol javoblar topishmoqlar va guruh bilan ishlash o'yinlari qo'shilsa samarali bo'ladi!

Yuqorida bildirilgan fikrlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki boshlang'ich sinf o'quvchilari multimedia negizida, shuningdek axborotlashgan jamiyat uchun xos bo'lgan muhim sifat axborotlarni uzatish va uni qabul qilish madaniyati yotadi bu esa shaxs kamolotining darajasi deya aytishimiz mumkin. Yosh qiziquvchi o'quvchilarni davr talabi bo'lgan multimediani oshirish biz pedagoglarning hamda ularning ota onalarining vazifalari hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy ta'lim tizimidan farq qilib jahon ta'lim standartlariga mos darslarni tashkil qilish mumkin. Dars jaronida turli xildagi interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarda olingan bilimlarni yanada rivojlantirishga ko'mak beradi. Media orqali tarqalayotgan axborotlarni mustaqil tahlil qilish tanqidiy fikrlash o'z fikriga egalik tashqi ta'sirlarga qarshi tura olish qobiliyatini rivojlantiradi deb o'ylayman.

Adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7 fevralda,O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmonida_2017; PF-4947sonli

2.Ya. Mamatova, S. Sulaymanova O'ZBEKISTON MEDIATA'LIM TARAQQIYOTI YO'LIDA 6-bet

3.Mediata'lim va media madaniyat:nazariyasi va amaliyot 2019

4.<https://lex.uz/uz/docs/-4312785?ONDATE=29.04.2019>

5.[https://mitc.uz/uz/pages/information technologies](https://mitc.uz/uz/pages/information_technologies)

6.<https://play.google.com/store/apps/details?id=com.respublikatalimmarkazi.raqamlid> arslıklarar

7.https://play.google.com/store/apps/details?id=com.RTM.Onat_2

8.<https://play.google.com/store/apps/details?id=com.respublikatalimmarkazi.raqamlid> arslıklarar